

Anvar Ismoilov

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi
San'atshunoslik instituti bo'lim mudiri,
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD,
katta ilmiy xodim
E-mail: mr.anvar.ismoilov@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6210-0618

ZAMONAVIY O'ZBEK TEATRI REJISSYORLARINING IZLANISHLARIDA POETIK TEATR IN'IKOSI

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqillik davrining dastlabki yillarida o'zbek teatri rejissyorlari tomonidan spektakl sahnalashtirishda poetik teatr shakl va xususiyatlarini qo'llash bilan bog'liq masalalar yoritiladi. Bu borada rejissyor O.Salimovning "Ot yig'lagan tomonda" (muallif T.Murod; 1994-y.), B.Yo'ldoshevning "Ipak yo'li" (1997-y.) spektakllari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: o'zbek teatri, rejissura, spektakl, poetik teatr, shakl, mazmun, xususiyat, izlanishlar, ifoda vositalari.

ОТРАЖЕНИЕ ПОЭТИЧЕСКОГО ТЕАТРА В ТВОРЧЕСКИХ ИСКАНИЯХ РЕЖИССЁРОВ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКСКОГО ТЕАТРА

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с использованием режиссёрами узбекского театра в первые годы независимости форм и особенностей поэтического театра при постановке спектаклей. В этом контексте анализируются спектакли режиссёра О.Салимова «От йиглаган томонда» («Там, где плакал конь», автор – Т.Мурод; 1994 г.) и Б.Юлдашева «Шёлковый путь» (1997 г.).

Ключевые слова: узбекский театр, режиссура, спектакль, поэтический театр, форма, содержание, особенности, творческие поиски, средства выразительности.

REFLECTION OF POETIC THEATRE IN THE CREATIVE WORK OF CONTEMPORARY UZBEK THEATRE DIRECTORS

Abstract. *This article examines the use of poetic theatrical forms and features in the production of plays by Uzbek theatre directors in the early years of independence. In this context, the plays “A Horse’s Cry in the Night” (author T.Murod; 1994) by O.Salimov and “The Silk Road” (1997) by B.Yuldashev are analyzed.*

Keywords: *uzbek theatre, directing, performance, poetic theatre, form, content, features, research, means of expression.*

“Poetik teatr” tushunchasi nazm va teatrning uyg'unligini o'zida ifoda etadi. Mazkur murakkab yo'nalish, uning xususiyatlarini anglash jarayoni teatr rejissyorlari uchun chinakam ijodiy izlanishlarga chorlaydi. Shu o'rinda o'zbek teatri rejissurasi ushbu yo'nalishni qanchalik ijodiy o'zlashtirayotgani, yangi sahnaviy ifoda vositalari bilan boyitayotgani, shu bilan birga, uning spektaklni yanada mazmunli va jozibador etishdagi ahamiyati borasida savollar tug'ilishi tabiiy. Mustaqillik davrining dastlabki yillarida teatrlarga berilgan erkinlik rejissyorlarning turli yo'nalishlarda ijod etishiga imkoniyat bergani asnosida poetik teatrga nisbatan amalga oshirilgan muvaffaqiyatli murojaatlarni tadqiq etish asosiy maqsad sifatida belgilandi. Maqola O'zR FA San'atshunoslik institutining “O'zbek teatrida XX–XXI asr boshlarida teatr shakllari va ifoda vositalarining evolyutsiyasi” ilmiy-tadqiqot mavzusi doirasida bajarildi.

Poetik teatr yo'nalishining yuzaga kelganiga yarim asrdan oshdi. Biroq u hamon qator teatr rejissyorlarini yangi izlanishlarga chorlamoqda, tomoshabinlarni esa hayajonga solib, o'z navbatida, fikrlashga undamoqda. Poetik teatr tushunchasi ko'pqirralidir. Unda har doim ham she'riyat to'g'ridan to'g'ri ifodalanmasligi mumkin, ammo har bir harakat, har bir so'z, hatto umumiy sahnaviy muhitda nazm ruhiyati hukmron bo'ladi. Natijada poetik xususiyatlar sahnaviy xatti-harakat, umuman spektaklning asosiy vositasiga aylanadi. Shu bilan birga, teatr nazmdan metaforani o'zlashtirib, poetik tafakkurga majoziylik baxsh etadi. Poetik teatr shu jihatlari bilan qiziq, shu xususiyatlari bilan rejissyorlarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Albatta, o'zbek teatri rejissurasida poetik teatrning u yoki bu xususiyatlarigina

spektakllarning stilistikasida namoyon bo'lmoqda, yangi yondashuvlar, yangi qarashlar yordamida transformatsiyaga uchramoqda. Aslida ham yarim asr avval yuzaga kelgan poetik teatr bugungi kunda boricha mavjud bo'lishi mushkul holat bo'lib, u zamonaviy davrda boshqa yo'nalishlar singari boyib borishi, yangi ifoda vositalarini o'zida uyg'unlashtirishi – tabiiy jarayon. Sababi, sahnaviy ifoda vositalari ko'pqirrali hamda elastikdir. Bundan mohir rejissyorgina mahorat bilan foydalana oladi. Poetik teatr xususiyatlari esa rejissyorga spektaklni ham mazmunan, ham shaklan boyitishda katta yordam beradi. Ta'kidlash lozimki, mazkur yo'nalishda XX asr oxiri – XXI asr boshlarida qator o'zbek teatri rejissyorlari ijodiy izlanishlarni olib bordi va olib bormoqda. Ular orasida B.Yo'ldoshev, O.Salimov, V.Umarov, A.Xo'jaquliyevni alohida qayd etish joiz.

Xususan, 1994-yili O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatrida sahnalashtirilgan "Ot yig'lagan tomonda" spektaklini alohida qayd etish mumkin. U rejissyor O.Salimov tomonidan Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshomda" va "Oydinda yurgan odamlar" nomli qissalari asosida sahnaga olib chiqildi. Tog'ay Murod qissalarida uning "dastxati" darrov seziladi. U aksar hollarda yaqin o'tmishda hukmron bo'lgan sobiq sovet tuzumida aziyat chekkan o'zbeklar haqida so'zlaydi, aynan xalqimizga xos qadriyatlar, turmush tarzi, e'tiqodni ulug'laydi. Uning "Ot kishnagan oqshomda" qissasi kuchli metaforaga ega bo'lib, insonning umri, taqdiri, xarakteri ot obrazi bilan qiyoslanadi. Jahon romanchiligining yorqin vakili Chingiz Aytmatovning "Alvido, Gulsari!" qissasida boshlangan mazkur mavzu Tog'ay Murod asarida mantiqiy davomini topgan. Sharqda ot kuch va qat'iylik, hurmat-izzat va tinchlik ramzi. Shuning uchun ham mazkur qissalarda ot bosh qahramon bilan majoziy uyg'unlik kasb etgan.

Mazkur spektaklni rejissyor romantik drama janrida sahnalashtirdi. Biroq unda odatiy va an'anaviy emas, balki shafqatsiz romantik ruhiyat seziladi. Bosh qahramonlarning boshiga tushgan kulfat-u tashvishlar, fojiaiy kechinmalar spektaklning qayg'uli va dardli talqin etilishiga olib kelgan. Hatto spektakl finaliga ham rejissyor shunday hazinlik ruhiyatini baxsh etgan. Oiladagi musibatlar,

jamiyatdagi qora niyatli kimsalar bilan kurash oqibatida yolg'iz qolgan benavo Ziyodulla foni dunyoni la'natlagancha tark etadi. Spektaklning tragik xususiyati shunda namoyon bo'lgan. Albatta, spektakl bosh qahramonlari Ziyodulla va Momosuluvning xatti-harakati, o'zaro so'zlashuvlarida optimistik ruhiyat hukmron. Ammo bu shundoq ham har ikkalasining farzandsizlikdan ezilgan diliga ozor bermaslikka intilishdir. Qahramonlardagi ich-ichidan orzu va umidlari ro'yobiga shubhalarini, g'am-anduhli holatlarini rejissyor yashirin tarzda, ichki konfliktlarda ko'rsatgan. O.Salimov aynan qahramonning orzulari real hayotiy haqiqat bilan to'qnashuvida spektaklning yetakchi xatti-harakatini aniq ifodaladi. Uning oddiy insoniy tuyg'ulari, orzulari shafqatsizlik bilan toptaladi. "Rejissyorning rassom B.Amansixat bilan birga vujudga keltirgan xotira va orzularning majoziy maskanida Ziyodulla-kal taskin topadi. Faqatgina suyuqli ayoli va sevimli oti haqidagi xotiralar, tug'ilmagan farzandi haqidagi orzularida u o'zini inson sifatida his etadi" [1, 213-b]. Spektaklda O.Salimov psixologik teatr xususiyatlari va poetik teatrda xos majoziy usullarni mohirona uyg'unlashtirdi. Oddiy insonning qiyinchiliklari, boshiga tushgan savdolari, fojiasini yoritish sahnada psixologik teatr uslubini qo'llashni talab etadi. Aynan shu uslub bilan qahramon ichki kechinmalari, his-hayajonlarini ifodalash mumkin. Darhaqiqat, aktyorlarning ijrolari iztiroblarga to'la. Rejissyor ana shu iztirobli holatlarni spektakl atmosferasida, tempo-ritmida ham ifodalashga erishgan.

O.Salimov ikki uslubni uyg'unlashtirarkan, ularning har biri sahnada alohida emas, balki bir butun ko'rinishda yuksak badiiylik bilan mavjud bo'lishi, majoziy va ramziy belgi hamda timsollar spektaklni boyitishga xizmat qilishi, ijrochilarning bor imkoniyatlarini ochishga yordam berishi kerakligini juda yaxshi tushungan. Shuning uchun har bir topilmalardan unumli foydalanish va ularni g'oyaga bo'ysundirish maqsadida ularni rejissyor obdon o'ylab, ishlab chiqqan. Natijada spektaklning muhitiga mos, barcha sahna va ko'rinishlarni tasviriy jihatdan boyitgan, har biri aniq fikr ifodalagan majoziy detallar vujudga keldi. "Rejissyor sahnaviy xatti-harakatni aniq, har biri ramziylik bilan sug'orilgan mizanssenalar

yordamida terib chiqqan" [2, 88-b]. Mizanssenalar shunday qurib chiqilganki, xatti-harakat uchun ajratilgan sahnaning uncha katta bo'lmagan qismida turli qarama-qarshiliklar va kontrastlardan iborat kichik dunyo paydo bo'lgan. Mazkur kichik dunyoda mehr va sevgi tuyg'ulariga limmo-lim romantik holatlar ham, insonni dahshatga soladigan fojiaiy voqealar ham yuz beradi.

Ziyodulla va Momosuluv rollaridagi F.Aminov va G.Sa'dullayevaning psixologik-romantik ijrosi metafora topilmalari bilan uyg'unlik kasb etgan. Oshkora hissiy, ehtirosli, bo'rttirma ijrodan voz kechilib, rolga yashirin va sokin, unsiz kechinmali yondashuv spektaklning umumiy ruhiyatiga to'la mos tushgan.

O.Salimovning "Ot yig'lagan tomonda" spektakli metaforik stilistika asosida sahnalashtirilib, unda fojiaiy poetika xususiyatlari namoyon bo'ldi. Natijada insonning ayanchli taqdiri haqida so'zlovchi, mazmunan realistik, shaklan majoziy yondashuvdagi, ichki va tashqi dinamikaga boy spektakl yuzaga keldi.

Tegishli davrda o'zbek teatri rejissurasi tarixiy va ijtimoiy mavzudagi sahna asarlari ustidagi ijodiy izlanishlar bilan bir qatorda, original adabiy asosi bo'lmagan, rejissyorlarning fantaziyasi va dunyoqarashi orqali vujudga kelgan kichik ssenariy yoki etyudlardan iborat kompozitsiyalardan tarkib topgan spektakllarni vujudga keltirish yo'lida ham izlanishlar olib bordi. Bu jarayon milliy rejissuraning mualliflik teatrini yuzaga keltirishdan iborat o'zbek an'anaviy teatridan meros qolgan tarixiy tajribalar asosida yangi shakl izlanishlarini vujudga keltirishga turtki berdi. Natijada noodatiy va noan'anaviy bo'lgan, asosan so'z emas, plastik xatti-harakat va raqsga qurilgan, butunlay tomoshaviylik asosidagi spektakllar vujudga keldi. Rejissyor B.Yo'ldoshev 1997-yili O'zbek davlat drama teatrida sahnalashtirgan "Ipak yo'li" spektakli shular jumlasidan bo'lib, unda Ipak yo'lining buyuk tarixi va buguni haqida noverbal uslubda, plastik harakatlar va ifodaviy xoreografiya orqali so'zlanadi. Ma'lumki, Buyuk ipak yo'li qadimgi davrdan boshlab, bir necha asrlar mobaynida Sharqiy Osiyoni O'rtayer dengizi bilan birlashtirgan karvon yo'li hisoblangan. O'zbekistonning yirik shaharlari esa o'sha yo'lni bog'lab turgan muhim maskan bo'lgan. B.Yo'ldoshev maqsadi ham o'z

spektakli orqali ana shu Ipak yo'lining jahon tamaddunida katta ahamiyatga ega bo'lganligini yana bir eslatish va isbotlashdan iborat.

Rejissyor spektaklga poetik qissa janrini asos qilib oladi hamda o'zi karvonboshi bo'lib, shartli-majoziy karvonga qo'shilgan tomoshabinlar bilan sayohatini boshlaydi. Natijada tomoshabin Chin yurtidan to Sofiya, Misr ehromlarigacha bo'lgan sarguzashtlarga boy, zavqli sayohatni boshdan kechiradi. "Shu asnoda turli mamlakatlarning urf-odatlarini, kiyim-bezaklari, kuy-qo'shiqlari aks etgan alohida xoreografik lavhalar namoyish etib boriladi va oxir-oqibat yagona kompozitsion butunlik yuzaga keladi" [3, 5-b].

Buyuk Ipak yo'lida uchragan sahrolar-u yaylovlar, tog'lar-u tekisliklar shartli-majoziy ko'rinishda aks etgan. Rejissyor o'zi ishongan, yillar davomida birga ijod qilgan safdoshi, rassom G.Brim bilan hamkorlikda jozibador dekoratsiyani yuzaga keltirgan. Sahnaning barcha qismiga yuqoridan pastga qilib, ipakni ifodalovchi ip-arqonlar tushirilgan. Karvonning qo'ng'iroqlariga mos ravishda ana shu ip-arqonlar ijrochilar tomonidan tortiladi hamda ipak gazlamalar hosil bo'ladi. Shunday qo'ng'iroqlar ostida sahnalar almashib, turli shaharlarning ko'rinishi paydo bo'ladi. M.Bafojev bastalagan musiqa ostida ijrochilarning plastik harakatlari-yu raqslari dekoratsiyadagi shartlilik va rang-baranglik bilan muvofiqlashgan.

Spektaklning har bir ko'rinishida rassom, libos rassomi, chiroq ustasi va boshqa ijodkorlarning nur, rang, liboslar, dekoratsiya jihozlari, shuningdek, rejissyorning mohirona o'ylangan mizanssenalari uyg'unlashib, voqealar juda ham dinamik va qiziqarli tarzda rivojlanib borgan. Sahnaning hech bir nuqtasi bo'sh turmaydi. Bir tomonda tuyalar, boshqa yerda gazlama ko'targan savdogarlar, sahnaning old va yon taraflarida plastik harakatlarni amalga oshirayotgan ijrochilar, har yerda yuqoridan tushgan ip-arqonlarni ritmga mos harakatlantirayotgan qatnashchilar, xullas, sahnaga chiqqan har bir ijrochi-yu, shartli jihozlarning vazifalari rejissyor tomonidan aniq belgilangan. Umumiy sahnaviy muhitdagi metafora, ijrochilarning plastik xatti-harakatlaridagi mayinlik va raqslaridagi jozibadorlik spektaklga she'riy ruhiyatni baxsh etgan. Rejissyor mazkur spektaklda

Buyuk Ipak yo'lining ip-gazlama yoki qimmatbaho toshlarni minglab chaqirim nariga yetkazgan "karvon yo'li bo'libgina qolmay, balki xalqlarni birlashtiruvchi, o'zaro aloqalarni tiklovchi vosita sifatida" [4, 21-b]gi roli jihatidan bugungi kundagi ahamiyatiga barchaning e'tiborini jalb qildi. Spektaklda noverbal teatr vositalari qo'llanilar ekan, rejissyor taklif etgan plastik yechim spektakl voqealarining tushunarli, rejissyorlik fikr-mohiyatining aniq ifoda etilishiga sabab bo'lgan. Buning natijasida tarix va bugunni ko'prikdek bog'lab turgan karvon yo'li, insoniyatning necha asrlar davomida shakllanib kelgan o'zaro munosabatlari, shuningdek, dunyoqarashi va turmush tarzi xilma-xil bo'lgan xalqlar, Sharqdan G'arbgacha bo'lgan hamda taraqqiyotga turli darajada yuz tutgan mamlakatlar haqida hikoya qiluvchi spektakl yuzaga keldi.

Asosiysi, B.Yo'ldoshev sahnada poetik teatr xususiyatlarini qo'llar ekan, aynan poetika bilan yo'g'rilgan musiqiy plastik spektaklni vujudga keltirdi. Bunday yondashuv zamonaviy o'zbek teatri rejissurasi uchun novatorlik sifatida qabul qilindi. O'z navbatida, rejissyor sahnaviy ifoda vositalarining rang-barangligi, ularni doimo yangi uslub va xususiyatlar bilan o'zgartirish hamda boyitish mumkinligini isbotladi. Poetik teatr xususiyatlari va unsurlari, shubhasiz, rejissyorlik izlanishlarini boyitadi. Ular spektaklning mazmuni va umumiy muhitiga shoirona ruhiyat, shakl va uslubiyatiga majoziylik baxsh etadi. O'zbek teatri rejissyorlari o'z ijodiy izlanishlarida poetik teatr shakl va xususiyatlarini qo'llashga, yangi sahnaviy ifoda vositalari bilan boyitishga harakat qilmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мухтаров И. *Узбекский театр: страницы истории и современности*. – Ташкент: Сан'ат, 2014. – 232 с.
2. *Istiqlol va milliy teatr*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. – 235 b.
3. Rizayev Sh. *Dunyo turfa rang, ammo yagona mazmundan iborat maskan* // O'zAS. – Toshkent, 2006. – № 46. – B. 5.
4. To'laxo'jayeva M. *Rejissyor izlanishlari* // *Teatr*. – Toshkent, 1999. – № 1. – B. 21.